

Yoshlar maslahatchilari va ularning koordinatorlari uchun o'quv seminarining 2-kun mashg'ulotlari bo'lib o'tdi.

// 12.03.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yoshlar-maslahatchilari-va-ularning-koordinatorlari-uchun-o>



Yoshlar maslahatchilari va ularning koordinatorlari uchun o'quv seminarining 2-kun mashg'ulotlari bo'lib o'tdi.

Bugungi mashg'ulotlar asosan shaxsiy rivojlanish mavzusiga qaratildi. Yoshlarga vaqtdan samarali foydalanish, ishni to'g'ri tashkil etish, liderlik xislatlari, inson psixologiyasi kabi mavzularda muhim ma'lumotlar berildi.

ЭЙЗЕНХАУЭР ЖАДВАЛ

ТЕЗ КОР	ВАКОЛАТНИ УЗАТ 15 %	БАЖАР 20 %
ТЕЗ КОР ЭМАС	ШОШИЛМА 1 %	РЕЖАЛАШТИРИШ, НАЗОРАТ ҚИЛ 65 %
	МУХИМ ЭМАС	МУХИМ

Uzkimyosanoat

“O'zkimyosanoat” AJ
MATBUOT XIZMATI

uzkimyosanoat uzkimyosanoat.uz (+99878) 140-74-26

Xususan:

Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti professori Tohir Shodiyev yoshlarga “Vaqtdan samarali foydalanishni shakllantirish texnologiyalari - taym menejment” mavzusida ma’ruza qildi.



Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti professor-o'qituvchisi Ra'no Axmedova "Liderlik xislatlarini rivojlantirish texnologiyalari" mavzusida bilimlar berishdi.



Ushbu institutning yana bir professor-o'qituvchisi Nozima Minbayeva "Inson psixologiyasi, nizoli vaziyatlarni va xodimlararo munosabatlarni boshqarish kabi zarur zamonaviy bilim va ko'nikmalari" mavzusi bilan o'rtoqlashdi.



Seminarining ikkinchi kuni interaktiv o'yinlar, psixologik testlar, qiziqarli savol-javob hamda bahs-munozaralarga boy bo'ldi. Ahamiyatlisi, mazkur o'quv seminari mamlakatimiz kimyo sanoatida faoliyat yuritayotgan yoshlarning shaxsiy rivojlanishi va mehnat unumdorligiga o'z hissasini qo'shadi.

Mashg'ulotdan so'ng ishtirokchilar O'zbek milliy akademik drama teatrining "Usmon Nosir" dramasiiga madaniy hordiqqa taklif etildi.